

**IKROMJON YO‘LDASHEV
IQBOLJON KAMOLOV**

**TARIX
DARSLARIDA
INTERFAOL
METODLAR**

(metodik qo‘llanma)

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA‘LIMI VAZIRLIGI**

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

**IKROMJON YO‘LDASHEV
IQBOLJON KAMOLOV**

**TARIX DARSLARIDA
INTERFAOL METODLAR
(metodik qo‘llanma)**

TOSHKENT – 2016

Mazkur metodik qo‘llanmada mamlakatimiz xalq ta‘limi va o‘rta maxsus ta‘lim muassasalarida tarix darslarini tashkillashda o‘qituvchilar tomonidan qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan bir qator innovatsion interfaol metodlar ravon va tushunarli uslubda qator misollar yordamida yoritib berilgan. Ushbu ta‘lim metodlarining metodologik asoslarini o‘rganishda va yoritib berishda AQSH va G‘arbiy Yevropa, Rossiya kabi mamlakatlar ta‘lim tajribasidan hamda eng ilg‘or milliy pedagogik an‘analardan keng va samarali foydalanildi.

Mas‘ul muharrir:

B.U.Olimov – pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Taqrizchilar:

B.U.Aminov – tarix fanlari nomzodi, dotsent

R.T.Xolmatov – tarix fanlari nomzodi, dotsent

*Uslubiy qo‘llanma Qo‘qon DPI o‘quv-uslubiy kengashi
tomonidan nashrga tavsiya etilgan*

KIRISH

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgan ilk kunlardan boshlab ta'lim-tarbiya tizimida tub islohotlarni amalga oshirish, yangicha yondashuv va vositalarni amalga joriy etish, taraqqiy topgan davlatlar tajribasi va boy tarixiy-ma'naviy merosimizdan oqilona foydalangan holda ta'lim mazmunini butunlay yangi bosqichga olib chiqish maqsad qilib olingan edi.

Bugungi kunga kelib "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi talablaridan kelib chiqib amalga oshirilayotgan tadbirlar birin-ketin o'z samarasini berib kelmoqda. Lekin shunga qaramay erishilgan yutuqlar bilan bir qatorda hal etilishi zarur bo'lgan muammolar ham bir talay. Pedagog kadrlar saviyasini kun sayin oshirib borish davr talabi bo'lib turgan bir sharoitda ayni shu maqsadga xizmat qiluvchi davlat tilidagi o'quv adabiyotlari, uslubiy qo'llanmalar va boshqa shu kabi materiallarga ehtiyojning yetarli darajada qondirilmayotganligi ana shu muammolardan biri va eng muhimi hisoblanadi, deb aytish mumkin.

Ayniqsa, darsni samarali tashkil etish, uning mazmundorligini oshirishga xizmat qiluvchi dars metodlari, xususan, interfaol metodlardan foydalanish bo'yicha mukammal uslubiy qo'llanmaning yo'qligi fan o'qituvchilarining vazifasini bir qadar murakkablashtirib qo'yimoqda. Bu borada o'qituvchilarga mustaqil ijodiy yondashuv tavsiya etilmoqda, lekin ana shu o'qituvchilarning qancha qismi mustaqil ijodiy yondashuvga layoqatli ekanini hech kim aytib bera olmaydi.


Mavjud uslubiy qo'llanmalarda esa muayyan metodlarning qaysi fan doirasida, qanday sharoitlarda qo'llanilishi mumkinligi, ulardan foydalanishda o'quvchilarning yosh kategoriyasi, vaqt me'yori kabi jihatlari faqatgina qisman ko'rsatib o'tilgan yoki mutlaqo qayd etilmagan. Bu esa o'z navbatida muammoning hal etilmay qolishiga olib kelmoqda.

Mazkur "Tarix darslarida interfaol metodlar" metodik qo'llanmasini yaratishda ana shu kamchiliklar inobatga olingan va mamlakatimiz ta'lim muassasalarida tarix darslarini o'qitishda qo'llanilishi mumkin bo'lgan bir qator interfaol metodlar yosh kategoriyasi, vaqt me'yori va misollar keltirish orqali ravon va tushunarli til uslubida yoritib berilgan. Qo'llanmaga kiritilgan metodlardan darsning ortib qolgan vaqtini mazmunli tashkil etishda, o'quvchilar diqqatini jamlashda, ularning tarix faniga bo'lgan qiziqishlarini orttirishda va eng muhimi, erkin fikrlaydigan barkamol avlodni tarbiyalashda foydalanish tavsiya etiladi.


Qo'llanmadan tarix fani o'qituvchilari, oliy o'quv yurtlarining "Tarix o'qitish metodikasi" yo'nalishi talabalari foydalanishlari mumkin. Uslubiy qo'llanmada keltirilgan metodlarni to'g'ri va samarali qo'llay olgan tarix fani o'qituvchilari nafaqat darslarni mazmunli va samarali o'tishga, qolaversa, o'quvchilarning o'qituvchi shaxsiga va tarix faniga bo'lgan mehr-muhabbatlari ortishiga muvaffaq bo'lishlari shubhasiz.

“MOZAIKA” (“PAZL”) METODI (5-7-sinflar uchun)

Ushbu metodni qo‘llash uchun muayyan mavzu asosida ishlangan illyustratsiyalar A4 formatli qog‘ozga rangli tasvirda chop etiladi. Quyida bir nechta misollar havola etilmoqda:



“Mo‘g‘ul qo‘shini harbiy yurishda” (1-rasm).



“Salamin jangi” (2-rasm).



“Diogen va Makedoniyalik Aleksandr” (3-rasm).



“Makedoniyalik Aleksandr qo‘shini bilan Tir shahrini qamal qilmoqda” (4-rasm).


Chop etilgan suratning orqa qismiga chizg‘ich yordamida bir-biriga teng kataklardan iborat jadval chiziladi chiziladi. So‘ng skalpel yordamida jadval chiziqlari bo‘ylab surat qirqiladi. Hosil bo‘lgan surat parchalari konvertga solinadi. Boshqa suratlar ham xuddi shu kabi holatda qirqib, konvertlarga solinadi va konvertlar ustiga suratlar mavzusi yozib qo‘yiladi.

O‘quvchilarga har biri 2 kishidan iborat guruhlariga bo‘lingan holda konvertlarni tanlash taklif etiladi. Berilgan muayyan vaqt ichida guruhlar surat parchalarini to‘g‘ri tartibda joylashtirib, illyustratsiyani tiklashlari kerak bo‘ladi. Eng birinchi bo‘lib suratni restavratsiya qilgan guruh o‘quvchilari rag‘batlantiriladi. Ushbu metodni qo‘llashga 10 daqiqagacha vaqt ajratilishi mumkin.

Mazkur metodni qo‘llash o‘quvchilarda muayyan tarixiy voqea haqida tarixiy tasavvur shakllanishini osonlashtiradi va ular dunyoqarashida tarix faniga nisbatan hurmat va uni atroflicha o‘rganishga bo‘lgan o‘ziga xos stimul hamda motivatsiyani yaratishga xizmat qiladi.



“KONTUR VA FANTAZIYA” METODI (5-7-sinflar uchun)

Mazkur metodni qo‘llash uchun tarixiy mavzudagi kontur-rasmlar A4 formatda oq-qora tasvirda chop etiladi va o‘quvchilarga tarqatiladi. Quyida bir qancha misollar havola etilgan:



“O‘rta asr G‘arbiy Yevropa ritsarlari” (5-6-rasmlar).

O‘quvchilar orttirilgan bilim va o‘z fantaziyalaridan kelib chiqqan holda ularni rangli qalamlar vositasida bo‘yashlari talab etiladi. Top-shiriqni to‘g‘ri va tez bajargan o‘quvchilar rag‘batlantiriladi. Ushbu metodni qo‘llash uchun 10 daqiqagacha vaqt ajratiladi.



“Qadimgi grek jangchisi”, “Qadimgi rimliklar kiyimi” (7-8-rasmlar).



“Qadimgi rimliklar kiyimi”, “O‘rta asr g‘arbiy yevropaliklar kiyimi” (9-10-rasmlar).

“TERMINATOR” METODI (6-9-sinflar uchun)

Ushbu metod o‘quvchilarda tarixiy atamalarni o‘zlashtirish ko‘nikmasini shakllantirishga yordam beradi. Buning uchun tarixiy atamalar Microsoft Word matn muharririda 48 kegel kattalikdagi shriftda terilib chop etiladi va har bir atama alohida qilib

qirqib olinadi (imkon qadar ularni qalinroq qog'ozga chiqarish tavsiya etiladi). So'ngra ularni maxsus qutichaga solinadi va qutichaning qopqog'ini yopib, atamalar yozilgan qog'ozlar yaxshilab aralashtiriladi. Sinfdan 8 nafar o'quvchi tanlab olinadi va ular birin-ketin qutichadan qog'ozchalarni ko'zlarini yumgan holda tanlab olishadi va ularda yozilgan atamalar izohini birma-bir sharhlashlari talab etiladi. Ishtirokchi o'quvchilardan qaysi biri eng ko'p atamaga to'g'ri va aniq izoh bera olsa, o'sha o'quvchi g'olib ("Terminator") deb topiladi va rag'batlantiriladi. Ushbu metodni qo'llash uchun 10-15 daqiqa talab etiladi.

"CHAYNVORD" METODI (6-9-sinflar uchun)

Ushbu metodni qo'llash tarix fani o'qituvchisidan biroz mas'uliyat va mehnatni talab etadi. Darslikning muayyan bir bo'limi yoki bobi yakunlangandan so'ng o'quvchilarning o'tilgan mavzularga oid tarixiy atama, joy va shaxs nomlarini qanchalik o'zlashtirganliklarini sinash maqsadida chaynvord tuziladi. Bunda so'zlar Microsoft Word matn muharriri yordamida A4 formatdagi qog'ozga tushirilgan katakchalarga vertikal (yuqoridan pastga), gorizontaal (chapdan o'ngga) yoki diagonal (yuqoridan pastga) yo'nalishlarda joylashtirib chiqiladi. Ortiqcha kataklar tasodifiy harflar bilan to'ldiriladi. O'quvchilar chaynvord ichidan o'zlariga tanish bo'lgan so'zlarni topishlari va ularni izohlab berishlari talab etiladi.

Mazkur metodni o'quvchilarni har biri 4 kishidan iborat guruhlariga bo'lgan holda qo'llash mumkin. Qaysi guruh topshiriqni tez va to'g'ri bajarsa, o'sha guruh ishtirokchilari rag'batlantiriladi. Ushbu metodni qo'llashga 10-15 daqiqa ajratilishi mumkin.

Г	Ф	Ф	Р	А	К	И	Я	Д	Г
Е	Д	И	Ф	Р	А	Д	А	И	Е
Р	И	Э	Л	Ш	В	П	О	О	Р
А	О	С	С	О	И	Т	И	М	А
К	Г	Х	А	Ц	С	Р	Л	Е	К
Л	Е	И	К	Д	Х	О	А	Д	Л
Й	Н	Л	И	Н	Ж	Ф	Ф	К	И
Д	Е	М	О	К	Р	И	Т	И	Т
М	А	К	Е	Д	О	Н	И	Я	Я
С	М	Р	Д	Г	Э	К	И	Р	С
И	А	А	Е	Е	В	П	Д	А	О
Р	Р	П	Л	Р	Р	Л	А	Ф	К
А	Г	А	Ь	О	И	А	Р	И	Р
К	И	Р	Ф	Д	К	Т	И	Н	А
У	А	Ф	И	О	А	О	Й	А	Т
З	Н	И	Я	Т	О	Н	О	К	С
А	А	Я	И	С	Т	О	Р	И	Я
А	Р	И	С	Т	О	Т	Е	Л	Ь
Я	Ч	С	А	Р	Х	И	М	Е	Д

Chaynvord (11-rasm).

П	А	Р	Ф	Е	Н	О	Н	Г	Ф
А	Ж	З	А	И	Д	У	Р	А	Н
Д	С	Е	С	О	Л	О	Н	З	У
И	И	В	Р	Т	Л	Ф	Г	Б	А
О	Р	С	О	И	Н	И	О	К	Т
Н	Е	Г	М	К	И	Д	М	Л	Л
И	Н	П	Е	Й	К	И	Е	И	А
С	А	Д	Л	Я	А	Й	Р	О	С
Х	П	Е	Р	И	К	Л	Ж	В	Г
Н	А	Р	Е	С	С	Ц	О	А	Е
П	И	Р	Е	Й	П	И	Р	Х	Л
П	О	Л	И	С	А	Л	М	И	И
Д	Г	И	И	Э	Р	И	И	Л	О
Г	Ь	Е	Л	Ф	Т	А	Л	Л	С
Й	О	Л	Р	Я	А	Д	О	Е	Е
Ю	И	П	Т	О	У	А	Т	С	Щ
Н	К	Р	Л	В	Д	К	Р	И	Т
А	О	З	Х	И	П	О	Э	О	С
Я	Д	Р	О	И	Т	Ч	Т	Ш	Г

Chaynvord (12-rasm).

“TTT” (“TEST TUZISH TAJRIBASI”) METODI (7-9-sinflar)

Testni to‘g‘ri tuza olgan kishi uni to‘g‘ri yechishni ham uddalaydi. Mazkur metodni qo‘llash uchun o‘quvchilarga muayyan mavzuga oid bir nechta, masalan, 10 ta test tuzish topshirig‘i beriladi. Buning uchun taxminan 10 daqiqa vaqt ajratiladi. So‘ng o‘qituvchi o‘zi uyda tayyorlab kelgan aynan shu mavzuga doir testlarni o‘quvchilarga tarqatib chiqadi. O‘quvchilar o‘qituvchi tomonidan tarqatilgan testlarni yechishda o‘z-lari test tuzish jarayonida orttirgan bilim va malakalariga tayanadilar.

To‘g‘ri, dastlabki paytlarda o‘quvchilarning aksariyati mantiqiy jihatdan qolipga tushmaydigan, nomukammal bo‘lgan testlarni tuzishadi. Lekin “TTT” metodini darslar jarayonida muntazam qo‘llab borish natijasida o‘quvchilarda testni mantiqan to‘g‘ri tuzish va o‘zlariga berilgan testlarni ham bilim va mantiqqa asoslangan holda to‘g‘ri yechish ko‘nikmasi hosil bo‘ladi. Ushbu metodni qo‘llash uchun jami 15-20 daqiqa vaqt ajratilishi ko‘zda tutilgan.

“U KIM? BU NIMA?” METODI (6-9-sinflar uchun)

Ushbu metod o‘quvchilarning tarixiy shaxslar, atamalar, toponomik tushunchalarni qanchalik o‘zlashtirganliklarini tekshirish va mavjud bilimlarni mustahkamlash uchun qo‘llaniladi. Buning uchun bir o‘quvchi doskaga taklif qilinadi va undan o‘zi istagan tarixiy shaxs, atama, toponomik tushunchaning ma‘lum bir xususiyatlarni birma-bir sanash so‘raladi. Qolgan o‘quvchilar u sanayotgan belgi-xususiyatlarga asoslanib, tarixiy shaxs yoki atamaning nomini topishlari talab etiladi.

Masalan, o‘quvchi qadimgi yunon tarixchisi Gerodotning ismini aytmagan holda unda doir ayrim tarixiy yoki biografik ma‘lumotlarni sanashi mumkin. Chunonchi, “U Yunonistonda yashagan”, “U qadimgi yunon tarixchisi”, “U miloddan avvalgi V asrda yashagan” va h.k.

Yoki masalan, Mesopotamiya haqida: “Bu mamlakatda o‘zaro urushlar shaharlar va savdo-hunarmandchilik rivojlanishiga xalaqit bergan”, “Bu mamlakatda savdoda kumush quyma ko‘rinishidagi metall tangalardan foydalanilgan”, “Bu mamlakatda “mino” deb atalgan og‘irlik o‘lchovi qo‘llanilgan” va h.k.

Mazkur metodni qo‘llashda o‘quvchilar navbatma-navbat o‘rin almashib, shu tarzda davom etishlari mumkin. Metodni qo‘llash chun taxminan 10-15 daqiqa vaqt ajratilishi mumkin.

“ORTIQCHASINI TOP” METODI (6-9-sinflar uchun)

Ushbu metodni qo‘llash uchun o‘qituvchi tomonidan muayyan mavzuga doir atamalar, tarixiy sanalar, tarixiy shaxslar, toponomik tushunchalar va h.k.lar ro‘yxati tuziladi. Har bir ro‘yxatga bittadan ortiqcha, ro‘yxat tasnifiga aloqador bo‘lmagan ma‘lumot kiritilgan bo‘ladi.

Masalan, quyidagi tuzilgan ro'yxatlarga e'tibor bering:

- 1. Xolchayon**
- 2. Dalvarzintepa**
- 3. Ayritom**
- 4. Eski Termiz**
- 5. Surxko'tal**
- 6. Qoratepa**
- 7. Zartepa**
- 8. Fayoztepa**
- 9. Ko'zaliqir**

- 1. Xorazmiy**
- 2. Farobiy**
- 3. Farg'oniy**
- 4. Beruniy**
- 5. Ibn Sino**
- 6. Imom Buxoriy**
- 7. Imom Moturudiy**
- 8. Zamaxshariy**
- 9. Ahmad Yassaviy**

“Kushon davri tarixiy yodgorliklari”, “IX-XI asrlar O'rta Osiyo mutafakkirlari”
(13-14-rasmlar).

- 1. Ra**
- 2. Osiris**
- 3. Sfinks**
- 4. Set**
- 5. Amon**
- 6. Xapi**
- 7. Maat**
- 8. Tot**
- 9. Anubis**
- 10. Xatxor**

- 1. Kanbul**
- 2. Izofa**
- 3. Xabargiri**
- 4. Manglay**
- 5. Ayl**
- 6. Qo'shun**
- 7. Xazora**
- 8. Tuman**
- 9. Yasovul**
- 10. Keshik**

“Qadimgi Misr xudolari”, “Amir Temur qo'shini harbiy bo'linmalari”
(15-16-rasmlar).

13-rasmda keltirilgan “Kushon davri tarixiy yodgorliklari” ro‘yxatida Ko‘zaliqir yodgorligi ortiqcha hisoblanadi, chunki u Qadimgi Xorazmga mansub hisoblanadi. 14-rasmdagi “IX-XI asrlar O‘rta Osiyo mutafakkirlari” ro‘yxatida Ahmad Yassaviy nomi ortiqcha hisoblanadi, chunki mazkur mutafakkir XII asrda yashab ijod qilgan. 15-rasmda keltirilgan ro‘yxatda “Qadimgi Misr xudolari” orasida “Sfinks” so‘zi ortiqcha sanaladi. 16-rasmda “Amir Temur qo‘shini harbiy bo‘linmalari” ro‘yxatida “Keshik” so‘zi ortiqcha, chunki ushbu atama mo‘g‘ullar davri tarixiga oiddir.

Ushbu metodni qo‘llashga 5-10 daqiqa vaqt sarflanishi mumkin.

“BIBLIOTARIX” METODI **(8-9 sinflar, akademik litsey va kollej o‘quvchilari,** **oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun)**

Yoshlar va o‘smirlar o‘rtasida kitobga bo‘lgan qiziqishning susayib ketayotgani barchani tashvishga solayotgan ayni bir paytda “Bibliotarix” metodi yordamida ushbu muammoni birmuncha ijobiy hal etishga erishish mumkin. Buning uchun o‘qituvchidan yuksak bilim va ma‘naviyat talab etiladi, metodni muvaffaqiyatli qo‘llashdan samara ham shunga yarasha bo‘ladi.

Tarix darslarida deyarli har bir mavzuni o‘tishda o‘quvchilarda mustaqil fikr, o‘ziga xos sog‘lom dunyoqarash hosil qila olish muhimdir. Bunda har bir dars mavzusiga oid badiiy adabiyotlardan parcha, iqtibos yoki sujetni misol qilib keltirish barobarida o‘quvchi (talaba)larga ushbu asarni albatta mutolaa qilishni tavsiya qilish ko‘zlangan maqsadga erishish garovi hisoblanadi. 25-30 kishilik auditoriyadan jilla qursa 5 ta o‘quvchi (talaba) tavsiya qilingan badiiy asarni o‘qib chiqsa, ularning asardan olgan taassurotlari “Tengdosh – tengdoshga” tamoyili asosida boshqa yana bir nechta o‘quvchi (talaba)larni ham uni o‘qib ko‘rishga undashi shubhasiz.

Chunonchi, 8-sinf o‘quvchilari uchun “XV asr oxiri – XVI asr boshlarida Xuroson va Movarounnahrda siyosiy vaziyat” mavzusini o‘tishda Muso Toshmuhammad o‘g‘li Oybekning “Navoiy” yoki Pirmqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” romanlarini qo‘shimcha adabiyot sifatida o‘qish tavsiya etilishi mumkin. Mazkur asarlarda aynan shu davrga oid tarixiy manzara va sujetlar batafsil va jonli tarzda ochib berilgan.

Yoki 9-sinf o‘quvchilari uchun “Turkistonda 1916-yil qo‘zg‘olonlarining boshlanishi” mavzusini o‘qitishda Muso Toshmuhammad o‘g‘li Oybekning “Qutlug‘ qon” romani, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarda “Qayta qurish” siyosatining barbod bo‘lishi. O‘zbekistonning davlat mustaqilligini qo‘lga kiritish tomon yo‘l tutishi” mavzusini o‘qitishda Tog‘ay Murodning “Otamdan qolgan dalalar” romani, Sovet Rossiyasida fuqarolar urushi (1918-1920-yy.) tarixini yanada samaraliroq o‘qitish maqsadida Mixail Sholoxovning “Tinch Don” romanini o‘quvchi va talabalarga qo‘shimcha adabiyot sifatida mustaqil o‘qish uchun tavsiya etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Lekin ushbu o‘qitish metodini qo‘llash yagona va eng muhim shart – o‘qituvchining o‘zi mazkur asarlarini bir necha marta mutolaa qilgan va ularning g‘oyaviy mohiyatini anglab yetgan bo‘lishi lozimdir. Ya’ni, yuqorida aytilganidek, o‘qituvchi o‘quvchi yoki ta-

labalarga muayyan badiiy asarni mavzuni mustahkamlash uchun o‘qishga tavsiya etish asnosida mazkur asardan parcha, iqtibos yoki ayrim diqqatga sazovor hamda mavzuga bog‘liq sujetlarni hikoya qilib berishi ayni muddaodir. Ushbu o‘qitish metodidan har qanday mavzuni o‘qitishda foydalanish mumkin. Buning uchun o‘qituvchidan tinimsiz izlanish va ijodiy yondashuv talab etiladi. Metodni ma’ruza davomida qo‘llashga mo‘ljallangan vaqt 5-10 daqiqani tashkil etadi.

Quyida ayrim mavzularni o‘qitishda “Bibliotarix” metodini qo‘llash vositasida o‘quvchilarga tavsiya etilishi mumkin bo‘lgan badiiy asarlar misollar keltirilgan:

6-sinf – “Buyuk Ipak yo‘li” mavzusi – Mannop Egamberdiyev – “Sariq ajdar hammasi” romani;

7-sinf – “Ulug‘bek – ma’rifatparvar davlat arbobi” – Odil Yoqubov – “Ulug‘bek xazinasi”;

8-sinf – “XIX asrning I yarmida Qo‘qon xonligining ijtimoiy-siyosiy ahvoli” – Sa’dixon Mavlavixon o‘g‘li – “Tanazzul” romani, Abdulla Qodiriy – “O‘tkan kunlar”, “Mehrobdan chayon” romanlari;

8-sinf – “XVI-XVIII asrlarda Hindiston” – Pirimqul Qodirov – “Avlodlar dovoni” romani;

8-sinf – “Fransiyada mutlaq monarxiya” – Aleksandr Dyuma – “Uch mushketyor” romani;

8-sinf – “Fransiyada Birinchi imperiya va uning halokati” – Aleksandr Dyuma – “If qal’asining mahbusi” (“Graf Monte-Kristo”) romani;

9-sinf – “Yosh buxoroliklar faoliyati va Buxoro amirligining tugatilishi” – Asqad Muxtor – “Buxoroning jin ko‘chalari” qissasi;

Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari – “Turkistonda sovet hokimiyatiga qarshi harakat” – Xudoyberdi To‘xtaboyev, “Qasoskorning oltin boshi” romani;

Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari – “Respublika qishloq xo‘jaligini jamoalashtirish va uning oqibatlarini” – Xudoyberdi To‘xtaboyev – “Jannati odamlar” qissasi.

“EPIGRAFIKA” METODI (6-9-sinflar uchun)

Tarix darslarini qiziqarli tarzda o‘tish nafaqat o‘quvchining bugungi kunini mazmunli o‘tkazishga, balki uning butun umrini mazmunan boyitish xizmat qilishini unutmaslik lozim. Tarix darslarida qo‘llaniladigan boshqa metodlar singari “Epigrafika” metodini qo‘llashdan ham aynan ushbu maqsad ko‘zlanadi. Mazkur metodni qo‘llash uchun o‘qituvchi avvaldan tayyorgarlikka ega bo‘lishi talab etilmaydi. Aytaylik, dars mavzusini bayon etishdan ortib qolgan vaqtni o‘qituvchi nimaga sarflashi mumkin?! Bunday kezlarda o‘quvchilar diqqatini chalg‘itmay bir maromda ushlab turish muhim. Chunki o‘quvchi darsni qanday kayfiyatda yakunlasa, kelasi tarix darsiga ham aynan shunday kayfiyatda qatnashadi.

“Epigrafika” metodini qo‘llash uchun turli tarixiy atamalar, joy nomlari, tarixiy shaxslar nomlari va sh.k.larni anglatuvchi so‘zlar harflar o‘rni almashgan holda beriladi:

FRAMANO
MARAFON

LSEALXI
AXILLES

DOSNPEYO
POSEYDON

LKRGEA
GERAKL

(17-20-rasmlar).

Ushbu metodni qo'llash orqali o'quvchi ongida o'tilgan mavzu fragmentlari ixtiyoriy ravishda gavdalanishiga erishiladi. Axborot uzatishning og'zaki va yozma usullaridan farqli o'laroq, interaktiv metod vositasida uzatilgan axborot o'quvchi tomonidan ixtiyoriy va o'zgacha qiziqish bilan qabul qilinadi.

“Epigrafika” metodini boshqacharoq variantda ham qo'llash mumkin. Masalan, ayrim harflarini tushirib qoldirgan holda tarixiy atamalar yoziladi va o'quvchilardan tushirib qoldirilgan harflarni to'g'ri topish talab qilinadi:

А**ОД**А

АФРОДИТА

*АР**ТС*Й

ЗАРАУТСОЙ

С**УН**Р

СЕЛУНГУР

(21-23-rasmlar).

“10+5” METODI (6-9-sinflar uchun)

O‘quvchilarda o‘tilayotgan mavzu to‘g‘risida tasavvur uyg‘onishi uchun ko‘pincha “Aqliy hujum” metodidan foydalaniladi. Bugungi kunda ana shu metodning muqobil variantlarini ishlab chiqish zarurati paydo bo‘lmoqda, bu tadbirdan ko‘zlangan maqsad dars mashg‘ulotlarida rang-baranglikka erishilishini ta‘minlashdan iboratdir. “10+5” metodi aynan mana shu maqsadni amalga oshirishga xizmat qiladi. Mazkur metodni qo‘llash shartlari juda oddiy: mashg‘ulotni boshlagach, o‘quvchilarga yangi

mavzu matnini 10 daqiqa davomida o‘qib chiqish taklif etiladi (o‘quvchilar o‘z imkoniyatlari darajasida matnni bir necha marta o‘qib chiqishlari mumkin bo‘ladi). So‘ngra har bir o‘quvchiga mavzu yuzasidan ikkitadan savol tuzish topshirig‘i beriladi va buning uchun jami 5 daqiqa vaqt ajratiladi. Shundan so‘ng o‘quvchilar uchta guruhga ajratiladi va birinchi guruh a‘zolari o‘zlari tuzgan savollarni ikkinchi guruh a‘zolariga, ikkinchi guruh a‘zolari uchinchi guruh a‘zolariga, uchinchi guruh a‘zolari esa birinchi guruh a‘zolariga beradilar. Savol-javoblar uchun uzog‘i bilan 5 daqiqa vaqt ajratiladi. Ushbu metod yordamida o‘quvchilar faolligi darajasini aniqlash, “Tengdosh – tengdoshga” tamoyili asosida o‘quvchilarning o‘quv predmeti bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini oshirishga erishish mumkin.

“ANIMATSION XARITA”

(6-9-sinflar, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari o‘quvchilari, oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun)

Ushbu metod o‘qituvchidan AKTdan mustaqil foydalana olish tajribasini, hatto animatorlik salohiyatini talab qiladi. Muayyan mavzuga doir tarixiy-geografik xarita namunasi olinadi, chunonchi, “Arab xalifaligining istilochilik yurishlari”, “Vizantiya imperiyasi” yoki “Salib yurishlari” va h.k. Dastlabki xaritada birlamchi davrdagi tarixiy-geografik holat o‘z aksini topsa, navbatdagi xaritada esa birlamchi davrga nisbatan hududlar kengayishi yoki o‘zgarishi jarayoni o‘z aksini topadi. Shu tarzda ikki yoki undan ortiq bir xil o‘lcham va masshtabdagi xaritalarni ketma-ket joylashtirish orqali yaratilgan jonli xarita modeli yoki internet manbalaridan olingan tayyor GIF-formatdagi animatsion xaritalar va AKT (shaxsiy kompyuter yoki lap-top, proyektor) vositasida undan tarix darslarida foydalanish mumkin. Ushbu metod yordamida o‘quvchilarning tarixiy-geografik jarayonlar to‘g‘risidagi bilimlari yanada boyishiga erishish ko‘zda tutilgan. Chunki amaldagi maktab darsliklarida tarixiy-geografik xaritalarga yetarlicha o‘rin berilmagan.

Masalan, 2013-yilda “Yangiyo‘l Poligraf Servis” nashriyoti tomonidan nashr etilgan 6-sinf o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan “Tarix. Qadimgi dunyo” darsligini olaylik. Mazkur darslik qolgan tarix fani darsliklari ichida eng ko‘p tarixiy-geografik xaritalarni o‘ziga ichiga qamrab olganligi bilan ajralib turadi (jami 16 ta turli mavzularga oid tarixiy-geografik xaritalar mavjud). “O‘zbekiston tarixi” 7-sinf darsligi (2013-yilgi nashr)ga esa 10 ta tarixiy-geografik xarita kiritilgan. “Jahon tarixi” 7-sinf darsligi (2013-yilgi nashr) esa tarixiy-geografik xaritalari bilan maqtana olmaydi – 160 sahifalik darslikda hatto atigi bitta tarixiy-geografik xaritaga ham joy topilmagan. 8-sinflar uchun mo‘ljallangan “O‘zbekiston tarixi” va “Jahon tarixi” darsliklari (2014-yilgi nashrlar) esa mos ravishda 3 va 0 (!) tadan tarixiy-geografik xaritani “o‘z bag‘riga joylagan”. 9-sinflar uchun “O‘zbekiston tarixi” va “Jahon tarixi” darsliklari (2014-yilgi nashrlar) ham 4 va 5 tadan tarixiy-geografik xaritalar bilan jihozlangan. Xullas, “Animatsion xarita” metodi vositasida yuqoridagi kamchiliklarning o‘rni ortig‘i bilan to‘ldirilishi mumkin.

Quyida “Franklar davlati (486-843-yy.)” mavzusidagi tarixiy-geografik xaritalar to‘plami e’tiboringizga havola etilmoqda:



(24-25-rasmlar)

Animatsion xaritani komputerde, Total Commander dasturi vositasida tayyorlash mumkin. Avvalo, bir xil o‘lcham, masshtab, rang va formatdagi ikki yoki undan ortiq xarita global tarmoq (internet) yoki boshqa muqobil resurslar orqali olinadi va “Total Commander” dasturi orqali shaxsiy kompyuter xotirasidagi alohida papkaga joylanadi. So‘ngra “Total Commander” dasturi buyruqlar menyusidan “Активная: быстрый просмотр” buyrug‘i tanlanadi. Fayl holatidagi kerakli xarita tanlaganda “Total Commander” dasturining o‘ng yoki chap (ixtiyoriy) oynasida xaritaning grafik tasviri hosil



(26-27-rasmlar)

bo‘ladi. Ushbu grafik tasvirning quyi chap burchagida grafik faylning atributlari (o‘lchami va h.k.) ko‘rsatilgan bo‘ladi. Aynan shu atributlar navbatdagi grafik faylning atributlariga mos bo‘lishi shart.

Shundan so‘ng xronologik jihatdan avvalgi davrni ifodalovchi xaritaning grafik tasviri tanlanadi. Sichqonchani o‘ng tugmasi grafik tasvir ustiga bosiladi va ish stolida buyruqlar oynasi hosil bo‘ladi. “Tools” buyrug‘i tanlanadi. Hosil bo‘lgan qo‘shimcha buyruqlar menyusidan “Animation Editor...” buyrug‘i tanlanadi va ekranda “Animation Editor” ish stoli hosil bo‘ladi. Oynani “Развернуть” tugmasi yordamida kengaytirib, buyruqlar menyusidagi “Kichiklashtirish” buyrug‘i orqali ish stolini optimal (o‘zingizga qulay) ko‘rinishga keltirib olishingiz mumkin. Sichqoncha chap tugmasi



grafik tasvir ustiga ikki marta bosiladi. Ish stolida qo‘shimcha “Frame Properties” oynasi hosil bo‘ladi. “Frame display time” katakchasiga 1000 (bir ming) soni kiritiladi, bu degani 1000 millisekund, ya’ni bir sekund deganidir. Har bir xaritaning displeydagi namoyish vaqtini o‘z istagingizga ko‘ra belgilashingiz mumkin. Shundan so‘ng “OK” buyrug‘i bosiladi va dastlabki xaritaning grafik tasviri uchun 1000 millisekund (bir sekund)lik namoyish vaqti belgilanadi.

Endigi vazifa, navbatdagi, xronologik jihatdan dastlabki xaritaga nisbatan keyingi davrga oid bo‘lgan xaritaning grafik tasvirini qo‘shish hisoblanadi. Buning uchun “Animation Editor”ning bo‘limlar menyusidan “Frame” bo‘limi, uning buyruqlari orasidan esa “Insert Frame” buyrug‘i tanlanadi. Monitorida “Открыть” oynasi hosil bo‘ladi, undan kerakli faylni tanlab, oynaning quyi o‘ng qismidagi “Открыть” buyrug‘i bosiladi. “Animation Editor”ning ish stolida yonma-yon ikki grafik tasvir hosil bo‘ladi: o‘ng tomonda (2-raqam ostida) – dastlabki xarita, chap tomonda (1-raqam ostida) – keyingi xarita. Chap tomondagi grafik tasvirning ustiga sichqoncha chap tugmachasi ikki marta bosiladi, “Frame Properties” qo‘shimcha oynasi hosil bo‘ladi. Ushbu xaritaning ham namoyish vaqti 1000 millisekund (yoki 1 sekund) etib belgilanadi va “OK” tugmasi bosiladi. Shu tarzda yana bir nechta xaritani qo‘shish mumkin.

Shundan so‘ng bo‘limlar menyusidan “File” tanlanadi va undagi “Save as...” buyrug‘i bosiladi. Monitorida “Сохранение” oynasi hosil bo‘ladi. Fayl nomini saqlayotganda uning formatini ham fayl nomidan so‘ng “.gif” tarzida terib qo‘yish tavsiya etiladi va shundan so‘ng “Сохранить” buyrug‘i beriladi. “Animation Editor” ish stolida “Attention!” oynasi hosil bo‘ladi va “Да” tugmasi bosiladi. Shundan so‘ng “Imagine” oynasida faylni saqlash jarayoni bajariladi. “Total Commander” dasturi vositasida xotiraga saqlangan GIF-formatdagi faylni tanlab, “Активная: быстрый просмотр” buyrug‘ini bergan holda yaratilgan animatsion xarita tasvirini ko‘rish mumkin (Yuqoridagi eksperiment “Windows 8.1 Профессиональная 2013” operatsion tizimi-



(28-rasm).



(29-30-rasmlar).

da, “Total Commander 8.51a PowerPack” (© Ghisler Software GmbH) dasturida bajarilgan).



(31-32-rasmlar).

**HOPE (HISTORY-OPTIMIZED PRIVATE EDUCATION) –
“TARIXGA IXTISOSLASHGAN INDIVIDUAL TA’LIM”
O‘QITISH MODELII**

HOPE (History-Optimized Private Education – “Tarixga ixtisoslashgan individual ta’lim”) o‘qitish modeli tarix fani bo‘yicha amaldagi tasdiqlangan darsliklar asosida Microsoft Word matn muharriri vositasida tuzilgan qatorli va alifboli testlar bazasidan iborat. HOPE o‘qitish modelini yaratish g‘oyasi 2012-yilda yaratilgan bo‘lib, uni amaliyotga tatbiq etish uchun yetarli sharoit bo‘lmaganligi sababli ma’lum vaqt mobaynida

faqatgina nazariy-empirik jihatdan tadqiq qilingan va 2014-yilga kelibgina amaliyotga joriy etilib, Farg‘ona viloyati Qo‘qon shahridagi 41-umumiy o‘rta ta‘lim maktabida iqtidorli o‘quvchilar bilan ishlashda individual ta‘lim dasturi sifatida qo‘llangan. 2014-2015-o‘quv yilida “Bilimlar bellashuvi” ko‘rik-tanlovi shahar bosqichida mazkur o‘qitish modeli miqyosida dastlabki amaliy natijaga erishilgan (mavjud 100 ballik imkoniyatdan 90 ball – Muallif).

Shundan so‘ng ushbu o‘qitish modelini takomillashtirish va yanada kengroq ko‘lamda qo‘llash choralari ko‘rildi va nafaqat iqtidorli o‘quvchilar bilan, balki past o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar bilan individual ishlashda, tarqatma materiallar tayyorlashda, nazorat darslari, o‘quvchilar bilimini monitoring orqali tekishirishda, oliy o‘quv yuritiga kirish imtihonlariga tayyorgarlik ko‘rayotgan abituriyentlar bilan individual ishlashda foydalanib kelinmoqda.

HOPE o‘qitish modelining amaliy ahamiyati shundan iboratki, avvalo, ta‘lim samaradorligini oshirishda o‘quvchilarda zaruriy stimul – o‘quv predmetiga bo‘lgan qiziqishni oshirishga, darslar mazmundorligini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, o‘quvchilarga tarix fanidan bilimlarni yetkazib berishda mustahkamllovchi vositda – resurs vazifasini bajaradi. Chunonchi, o‘tilgan dars mavzusini mustahkamlash maqsadida HOPE o‘qitish modelidan foydalanish mumkin. Bunda A mavzu o‘tilgach, avvaliga mavzuga doir qatorli testlar, so‘ngra aynan shu mavzuga doir alifboli testlarni qo‘llash orqali mavzuga doir bilimlarni ikki karra mustahkamlash imkoniyati va biryo‘la o‘quvchilarni baholay olish imkoniyatini beradi.

Uchinchidan, o‘quv predmeti mavzulari o‘rtasidagi bog‘liqlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Masalan, A mavzu o‘tib bo‘lingach, B mavzu o‘tiladi. B mavzuni mustahkamlash jarayonida A mavzuga doir testlar ham B mavzuga doir alifboli testlarga aralashtirib yuboriladi va A mavzuga doir bilimlar uchinchi marta mustahkamlanadi (Eslatma: A mavzu o‘tilgan darsda A mavzuga doir bilimlar qatorli testlar vositasida birinchi marta, alifboli testlar vositasida ikkinchi marta mustahkamlanadi). Shu kabi C mavzu o‘tilgan darsda $A^4+B^3+C^2$ tarzida A mavzuga doir bilimlar to‘rtinchi marta, B mavzuga doir bilimlar uchinchi marta, C mavzuga doir bilimlar esa ikki marta (qatorli va alifboli testlar vositasida) mustahkamlab boriladi.

To‘rtinchidan, HOPE o‘qitish modeli bugungi kunda uncha ko‘zga tashlanmayotgan ta‘lim tizimi bosqichlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Chunonchi, ayni paytda xalq ta‘limi – o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi – oliy ta‘lim tizimi o‘rtasidagi mantiqiy bog‘liqlik talab darajasida emasligi bilan izohlanadigan muammoni hal etishda HOPE o‘qitish modelidan o‘rinli foydalanish kutilgan samarani berishi ko‘zda tutilgan.

Beshinchidan, HOPE o‘qitish modeli materiallaridan nazorat darslarida, monitoring asosida o‘quvchilar bilimini tekishirishda foydalanish imkoniyati mavjud. Bu esa o‘z navbatida, tarix fani o‘qituvchilarining nazorat materiallarini tayyorlashga sarflanadigan vaqtini tejashga xizmat qiladi. Mazkur tejalgan vaqtni esa o‘qituvchi yanada o‘z ustida ishlashga sarflashi mumkin bo‘ladi.

Oltinchidan, mazkur o'qitish modeli iqtidorli o'quvchilar, jumladan, "Bilimlar bellashuvi" ko'rik-tanlovi, fan olimpiadalari qatnashchilari bilan individual ishlashda yuqori samarali vosita sifatida qo'llash tavsiya etiladi.

Yettinchidan, HOPE o'qitish modeli sinf yoki guruhlarda qoniqarsiz o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan individual ishlashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Chunki HOPE o'qitish modeli bosqichlari oddiydan murakkabga shakllangan bo'lib, qiyinlik darajasi o'quvchining o'zlashtirish ko'rsatkichiga qarab quyidan yuqoriga o'zgarib boradi.

Sakkizinchidan, ko'zda tutilayotgan o'qitish modeli materiallari akademik-litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari uchun ham amaliy mashg'ulotlarda yoki mustaqil tarzda foydalanish uchun manba vazifasini o'taydi.

To'qqizinchidan, HOPE o'qitish modeli oliy o'quv yurtlariga kirish imtihonlariga tayyorlanayotgan abituriyentlarga mustaqil tartibda ishlash uchun tavsiya etiladi. Bunda abituriyentning o'qituvchi-repitorga ehtiyoji keskin ravishda kamayadi. Aslida, HOPE o'qitish modelini yaratishdan maqsad ham umumta'lim va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida tarix fanini o'qitish samaradorligini oshirish hisobiga o'quvchilarning maktabdan tashqari ta'lim (o'qituvchi-repitor)ga bo'lgan ehtiyojlarini bartaraf etishdan iborat hisoblanadi.

O'ninchidan, ta'lim muassasalarida HOPE o'qitish modelidan nafaqat tarix fanini samarali o'qitishda, balki boshqa qator fanlarni o'qitishda ham ratsional tarzda foydalanish imkoniyati mavjud. Jumladan, geografiya, iqtisod, biologiya va shu kabi o'quv predmetlarini o'qitishda ham mazkur o'qitish modelidan unumli foydalanish mumkin.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, HOPE o'qitish modeli mamlakatimiz ta'lim tizimiga ijobiy tajriba sifatida kiritilishi maqsadga muvofiqdir.

TARIX DARSLARINI SAMARALI TASHKIL ETISHNING YETTI QOIDASI

Formuolt V. Li Amerika tarixchilari Assotsiatsiyasining ijrochi direktori hisoblanadi. U Albaniya Davlat Universiteti va Indiana universitetlarida Amerika va jahon tarixi fanlaridan ta'lim berib kelmoqda. F.V.Li o'zining ko'p yillik pedagogik tajribalarini umumlashtirgan holda o'qituvchilar uchun tarix darslarini samarali tashkil etishning yetti qoidasini e'lon qildi.

Unga ko'ra, birinchidan, o'qituvchining entuziastik mahorati auditoriyani jonlantira oladigan eng muhim jihat sanaladi. O'qituvchi o'zidagi kayfiyatni o'quvchilarga yuqtira olishi zarur. Buning uchun esa o'qituvchining o'zi ham dars mavzusiga mos kayfiyatda bo'lishi, ruhan baquvvat bo'lish uchun o'qituvchidan o'zi o'qitayotgan fanni sevishi talab etiladi. O'zi o'qitayotgan fanni tanasining bir qismi sifatida his qilishi lozim. Aks holda o'qituvchi shaxsiga, qolaversa, u o'qitayotgan fanga nisbatan ham o'quvchida loqaydlik va bepisandlik paydo bo'ladi.

Ikkinchidan, tarix darslarini o'tish jarayonida faqat darslik bilan chegaralanib qolish fanni o'quvchi uchun ham, o'qituvchi uchun ham zerikarli mashg'ulotga aylantirib

qo'yadi. O'qituvchi muayyan mavzuni o'tish jarayonida birlamchi tarixiy manbadan iqtiboslar yohud munosib ikkilamchi manbadan sujetlarni dars mavzusiga jalb etishi mumkin. Masalan, Zahiriddin Muhammad Bobur haqidagi dars mavzusiga qo'shimcha ravishda "Boburnoma", "Humoyunnoma" tarixiy asarlaridan iqtiboslar, yozuvchi P. Qodirovning "Yulduzli tunlar", X.Sultonovning "Saodat sohili" romanlari kabi badiiy asarlardan parchalar keltirish orqali o'quvchi diqqatining yanada konsentratsiyalashuviga erishiladi.

Uchinchidan, mavzuga doir ikkilamchi manbalar – ilmiy risolalar, OAV materiallari, maqola va shu kabi materiallar matnlaridan dars jarayonida foydalanish o'qituvchining pirovard natijaga erishishida asqotadi. Bugungi kunda O'zbekistonning eng yangi tarixini o'qitishda Prezident I. A. Karimov asarlariga bot-bot murojaat qilinayotgani bejizga emas, albatta. Aytaylik, O'zbekistonda mustaqillik yillarida ta'lim islohotlari mavzusini yoritish uchun "Ta'lim to'g'risidagi"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"ni sharhlagandan ko'ra shu jabhada yozilgan maqola yoki risoladan o'rinli foydalanish maqsadga muvofiq sanaladi.

To'rtinchidan, o'tmish voqealarini bugungi kun bilan bog'lagan holda sharhlash o'quvchilarda har tomonlama mavzuga bo'lgan qiziqishini uyg'otishi tabiiy. Chunki bugungi kunda dunyoda sodir bo'layotgan biror ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy yoki madaniy jarayon yo'qki, tarix bilan aloqadorligi bo'lmasa. Masalan, fetishizm nima ekanligini o'quvchilarga tushuntirish uchun bugungi kunda ham iste'molda bo'lgan tumor, ko'zmunchoq, darvoza peshtoqiga osiladigan isiriq va qayroqtoshni misol qilib keltirish kifoya.

Beshinchidan, statistik faktlardan tez-tez foydalanib turish tavsiya etiladi. Foydalanilganda ham, "Eng, eng, eng..." turkumidagi statistik ma'lumotlar o'quvchilarni befarq qoldirmaydigan manbalardan hisoblanishini unutmaslik zarur. Chunki psixologik tadqiqotlarga ko'ra o'smirlarni me'yor tushunchasining maksimumi va minimumi odatda ko'proq qiziqtiradi.


Oltinchidan, ma'ruza vositasida yetkazib berish mushkul bo'lgan mavzularni yoritishda o'quv filmi yoki audiovositalardan foydalanish tavsiya etiladi. Bunda o'quvchining mavzuga doir ma'lumotlarni qabul qilish imkoniyati ikki-uch hissa ortadi, sababi o'quvchilar diqqatini audio va videovostalar ma'ruzaga nisbatan ko'proq jalb etishga qodir.

Yettinchidan, AKT texnologiyalaridan imkon qadar mukammal bilish davr talabi, ayniqsa, bugungi kun tarix o'qituvchisi uchun. Chunki global tarmoqdan barcha birdek foydalanayotgan zamonda tarix o'qituvchisi kutubxonada kitoblarga ko'milib o'tirishi mantiqqa to'g'ri kelmaydi. Internet saytlarida berib borilayotgan tarixga doir yangiliklar, o'quv jarayonini boyitish imkoniyatlari o'qituvchi nazaridan chetda qolmasligi zarur.

Yuqoridagi yettita qoida – tavsiyalarni umumlashtirgan holda tarix darslarini tashkillashdan o'qituvchi ham, o'quvchi ham, jamiyat ham manfaatdordir. Buning negizida yaxshi muallim – sifatli ta'lim tamoyili yotganini hech birimiz unutmasligimiz darkor.

“INFOGRAMMA” METODI
(6-9-sinflar, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari o‘quvchilari,
oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun)

Mazkur metodni ko‘rgazmali tarzda qo‘llash tavsiya etiladi. Buning uchun vatman qog‘ozga dars mavzusiga oid infografika tuziladi. Ushbu metodni qo‘llash orqali qimmatli vaqt tejiladi va mavzuni samarali yoritish imkoniyati vujudga keladi. Quyida “XV asr oxiri – XVI asr boshlarida Xuroson va Movarounnahrdagi siyosiy vaziyat” mavzusiga oid infografika namunasi keltirilgan:



(33-rasm).

“Infogramma” metodi yordamida mavzu mazmunini o‘quvchilarga yetkazib berish o‘ta qulay va samarali hisoblanadi. Faqatgina metodni qo‘llashda infografikani to‘g‘ri tuza olish muhimdir. Metodning afzalliklaridan yana biri – undan ta’limning istalgan bosqichida istalgan mavzuni o‘tishda foydalanish mumkin. Bunga 8 sinf “Jahon tarixi” darsligidan o‘rin olgan “XIX asrning 70-yillarigacha bo‘lgan davrda Afrika xalqlari” mavzusi bo‘yicha tuzilgan infografikani yaqqol misol qilib keltirish mumkin:



(34-rasm).

“QORA QUTI” METODI

(6-9-sinflar, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o‘quvchilari, oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun)

“Qora quti” metodi biror-bir mavzuga oid tarixiy shaxslar hayoti va faoliyatini o‘rganishda samarali vosita hisoblanadi. Buning uchun qora rangga bo‘yalgan qog‘oz qutiga muayyan mavzuga doir bir nechta tarixiy shaxs nomlari yozilgan blankalar solib qo‘yiladi. O‘qituvchi mavzuni tushuntirib bergach, uni mustahkamlash uchun o‘quvchilarga “Qora quti” o‘yinini o‘ynashni taklif etadi:

“Hurmatli o‘quvchilar, samolyot halokatga uchraganda uning halokatga uchrash sabablarini o‘rganish uchun mutaxassislar tomonidan samolyotning “qora quti”si o‘rganiladi. Keling, biz ham o‘zimizni bir necha daqiqaga ana shu mutaxassislar o‘rniga qo‘yib ko‘ramiz. Mana bu qutida halokatga uchragan samolyot bortida bo‘lganlarning ismlari yozilgan, lekin hech kim ularning kim ekanligini va nima uchun samolyotga chiqqanini bilmaydi. Bizning vazifamiz ushbu shaxslarning kimligini va nima ishlar qilganini aniqlashdan iborat”.

Shundan so‘ng o‘quvchilar birin-ketin quti ichidagi tarixiy shaxs nomlarini sharhlaydilar. Bir tarixiy shaxsga doir ma’lumotlarni bir necha o‘quvchi birgalikda, guruh bo‘lib sharhlashi ham mumkin.

Ushbu metodni qo‘llash uchun 10-15 daqiqa vaqt talab etiladi. Mazkur metodni, ayniqsa, tarix fanidan ochiq darslarda qo‘llash dars mazmunini yana bir karra oshirishga xizmat qiladi.

XULOSA

Mazkur mo‘jazgina qo‘llanmadan o‘rin olgan interfaol metodlarni nafaqat tarix darslarida, balki boshqa fanlarni o‘qitishda ham bimalol qo‘llash, bundan tashqari uslubiy qo‘llanmada keltirilgan ta’lim metodlarini fan o‘qituvchilari o‘z dunyoqarashlaridan hamda sharoitdan kelib chiqqan holda qayta ishlashlari, rivojlantirishlari mumkin.

Ushbu qo‘llanmaning chop etilishi bilan kirish qismida tilga olingan muammolar hal etiladi, deb aytishdan yiroqmiz. Lekin ayni muammoni hal etishga qaratilgan yangidan-yangi tadbirlarning boshlanishiga turtki bo‘lishiga ishonchimiz komil.